

KUTUBXONA – AXBOROT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH.**Mannonov Yusup Otaxonovich***O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**Kutubxona - axborot faoliyati fakulteti**Kutubxona-axborot faoliyati kafedrası dotsenti v. b.**Mannonovyusuf@gmail.com. Mob. Tel: 93 562 26 28***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 26.03.2026**Revised: 27.03.2026**Accepted: 28.03.2026**Maqolada Kutubxona - axborot faoliyatida sun'iy intellektning kutubxona faoliyatidagi o'rni, sun'iy intellektga asoslangan turli usullar, bulutli texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.***KALIT SO'ZLAR:***Kutubxona – axborot,
intellektual tizim, sun'iy
intellekt, bulutli
texnologiyalar.*

Bugungi kunda siyosiy va iqtisodiy sohalardagi keskin o'zgarishlar jamiyatimizning yuksalishida salmoqli o'rin egallamoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti 2026 - 2030 – yil strategiyasi barcha sohalarda rivojlanishning muhim yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Shu jumladan Kutubxona – axborot faoliyati yo'nalishida ham birqancha muhim vazifalar belgilandiki, bu masalalarni ijobiy hal qilish sohani istiqbol va istiqbolini belgilaydi. XXI asr axborot texnologiyalari asriga aylandi. Bu asrning noyob texnologiyasi kompyuterlar hisoblanadi. Axborot almashishda butun dunyoda kompyuterlardan foydalanilmoqda. Kompyuter va Internet imkoniyatlaridan foydalana bilish, Axborot kiber olami bilan kengroq tanishish, bahramand bo'lish, dunyoning istalgan nuqtasi bilan bog'lanish, muloqot qilish imkonini yaratadi.

Zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanish kutubxona - axborot faoliyatida aholiga xizmat ko'rsatishda, axborot so'roqlarini qondirishda, axborotni qabul qilish va tahlil qilish, axborotni yetkazish, axborot oqimiga bo'lgan ish sifatini davr darajasida olib borishga imkon beradi, mehnat unumdorligini oshiradi. Kutubxon – axborot faoliyatida yuqoridagi texnika vositalaridan foydalanib, axborot oluvchilarga keng imkoniyat yaratib berilmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda axborot - kutubxonalar virtuall olamida, sun'iy intellekt platformasi foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Sun'iy intellekt atamasi 1955-yilda Jon Makkarti (John McCarthy) tomonidan kiritilgan. 1956-yilda Makkarti va boshqalar Sun'iy intellekt bo'yicha "Yozgi Dartum" tadqiqot loyihasi konferensiyasini tashkil etishdi. Ushbu tashabbus mashina o'rganishi, chuqur o'rganish, bashoratli tahlillar kabi ko'p ixtirolar qilinishiga olib keldi. Undan tashqari, bu tashabbus yangidan-yangi sohani - ma'lumotshunoslikni (data science) keltirib chiqardi.

Sun'iy intellekt-informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqq oladi.

Sun'iy intellekt - tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o'ylash va ulardek yechim topishga yo'naltiradigan texnologiyadir.

Ushbu maqsadga erishish uchun uchta asosiy tarkibiy qism talab qilinadi:

- hisoblash tizimlari (katta quvvatli kompyuterlar);
- katta ma'lumotlar va ularni boshqarishda ko'nikmalar;
- SI algoritmlari (dasturiy kod);

Kutubxona - axborot faoliyatida sun'iy intellektidan foydalanishning afzalligi - bu uning katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishidir. Bundan tashqari, intellektual tizim foydalanuvchilarga maqbul bo'lgan axborot olish usullarining qaysi biri eng samarali ekanligini va qaysi axborot resurslaridan foydalanishni aniqlay oladi. Bu o'z navbatida foydalanuvchilarga o'z dasturlarini moslashtirish va ulardan qulayroq foydalanish imkonini yaratadi. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida katta hajmdagi yangi ma'lumotlarni tahlil qilishlari va ularni o'zlashtirishlari lozim bo'lgan taqdirda, intellektual tizimlardan didaktik vosita sifatida foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt algoritmlari

ta'lim dasturlari va platformalarida baholash, tarkibni tavsiya qilish va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini yaratish kabi vazifalarni avtomatlashtirish uchun amalga oshiriladi. Tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlari foydalanuvchilarning so'rovlari va yozma javoblarini tushunish va ularga javob berishga qodir bo'lgan aqlli repetitorlik tizimlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Sun'iy intellektning **SMODIN** intellektual tizimdan foydalangan holda istalgan mavzuda maqolalar, hikoyalar, esseylar yaratish mumkin. Ular har qanday antiplagiat platformalar xizmati tomonidan tekshirilganda o'zining takrorlanmas ma'lumotlarini saqlab qoladi, ishonchli, yuqori sifatli ma'lumotlarga asoslanib ish ko'radi.

Suningdek **ChatGPT** – sun'iy intellektning ushbu versiyasi bugungi kunda eng ko'p foydalaniladigan platformalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib ChatGPT platformasidan foydalanuvchilar soni dunyo bo'yicha 100 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Ushbu universal chatbot talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun assistent-yordamchi vazifasini bajaradi va turli matnlarni yozish, asosiy dastur kodini yaratish, moliyaviy tahlilni o'tkazish, texnik maqolalar yoki ilmiy tushunchalar bo'yicha xulosalar chiqarish, berilgan g'oya asosida tasvirlar va videolarni yaratish hamda aniq mavzular bo'yicha g'oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning **DEEPL** - platformanini Google translyatorga munosib raqobatchi deyish mumkin. Unda tarjimalar juda aniq va moslashuvchidir. Uning yordami bilan ta'lim oluvchi ingliz tilini yetarlicha bilmagan taqdirda, boshqa neyron tarmoqlar uchun qidiruv so'rovlarini yaratishi va foydalanishi mumkin. DEEPL funksiyasi har xil turdagi barcha fayllarni, shu jumladan - pptx, docx, pdf formatlarni darhol tarjima qilish imkonini beradi. Mazkur platforma katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.[2.]

Sun'iy intellekt, Kutubxona – axborot faoliyatida maxsus dasturlarini yaratish va muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ushbu shaxsiy yondashuv har bir foydalanuvchining shaxsiy ehtiyojlariga mos axborotlarni olishini ta'minlaydi. Shu bilan birga sun'iy intellekt, har bir foydalanuvchinig yuqori samarali va shaxsiy o'rganish yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Bu foydalanuvchilarning qiziqtirgan sohalar va maqsadlarga moslashtirilgan tizimni taqdim etadi. Ushbu dinamik moslashuv foydalanuvchilarni jalb qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt foydalanuvchilarning o'rganish jarayonida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu foydalanuvchilarning rivojlanishini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi.

Kutubxona – axborot faoliyatida sun'iy intellekt avtomatlashtirilgan dasturlarini yaratish va bajarish imkonini beradi. Foydalanuvchilarga konsultatsiyalar, maslahat berish shaxsiy yordamni taqdim etish orqali o'rganish jarayonini ko'rib chiqish va takomillashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, Kutubxona – axborot faoliyatida bulutli texnologiyalardan foydalanish infratuzilma xarajatlarini kamaytirish va o'z resurslaridan samaraliroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. **PaaS** modeli kutubxonalar uchun ilovalarni yaratish va ishlab chiqishni yanada soddalashtiradi. Ushbu platformalar kutubxonalar uchun innovatsion xizmatlarni taqdim etishda, kutubxonachilar bilan aloqani yaxshilashda va resurslarni samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, kutubxonalar o'z kutubxonachilariga yanada qulayroq va zamonaviy xizmatlarni taklif qila oladilar. **SaaS** (Xizmat sifatida dasturiy ta'minot) bulut modelida dasturiy ta'minot Internet orqali xizmat sifatida taqdim etiladi, ya'ni foydalanuvchilar dasturiy ta'minotga o'z kompyuterlaridan, to'g'ridan-to'g'ri Internet brauzerlari yoki maxsus ilovalar orqali kirishlari mumkin [3].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kutubxonalarda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni amalga oshirish katta imkoniyatlarni yaratadi, jahon tajribasi asosida Kutubxona – axborot faoliyatida xizmatlari sifatini oshirish jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, barcha turdagi kutubxonalar uchun ushbu innovatsion yechimlarni taqdim etishda, ularning xizmatlarini kutubxonachilar uchun yanada samaraliroq va qulayroq qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va taqdim etish jarayonlarini soddalashtirishga yordam berish orqali kutubxonalar faoliyatini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Kutubxona resurslariga onlayn kirish ta'minlanadi, bu foydalanuvchilarga istalgan joydan yoki istalgan vaqtda ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Bulutli yechimlar xarajatlarni kamaytiradi va resurslarni samarali boshqarishni ta'minlaydi. Bu xodimlarning vaqtini va kuchini cheklashga yordam beradi. Bulutli xizmatlar yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi, bu kutubxonachilar ma'lumotlarini himoya qilishda muhimdir. Ushbu texnologiyalardan foydalanish kutubxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, elektron resurslardan birgalikda foydalanish va tajriba almashish imkoniyatini va ularning aloqalarini rivojlantiradi. Har bir mutaxassis sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar kabi yangi tizimda ishlashni mukammal egallashi, kutubxona xizmatlarini taqdim etish va rivojlantirishda, sohani yuksak samaralarga erishishida o'z hissasini qo'shishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi davr talabi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Axborot-kutubxona texnologiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma / Y.O. Mannonov, K.G'. Mavlyanov – Toshkent : “ILM VA FAN” nashriyoti, 2022. – 160 bet.

2. Бессмертный И.А. Искусственный интеллект: Учебное пособие. / И.А. Бессмертный. - Санкт-Петербург.: - 2010.- 288 с.

3. Смирнов И. Библиотеки в «облаках»: практические аспекты // Российский библио- течный журнал. -2022. - №4. - 25-28с.

Internet saytlari:

1. www.google.uz

2. www.educationnext.org

